



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

150300, Beshariq tumani, Oltin Vodiy ko'chasi, 46-uy, tel.: (998 73) 612 21 19,
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: beshariq.t-yurmarkaz@adliya.uz

02.02.2022 yil

Beshariq tuman
Tibbiyot birlashmasi

XULOSA

(Tibbiyot birlashmasining № 10 -sonli
shartnoma loyihasiga)

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyhaning nomi: Internet va telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha № 10-sonli shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022 yil 02 fevral kuni ishlab chiqilib, 2022 yil 02 fevral kuni markazga taqdim qilingan.

4.Loyiha bo'yicha taklif: Beshariq tuman tibbiyot birlashmasi hamda "O'zbektelekom" AK o'rtasida internet va telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi № 10-sonli tuzilgan shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli Qonunining 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 4-bandida, avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari bo'yicha xaridlar uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

XULOSA

Mazkur shartnoma loyihasini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

Beshariq tuman YuXKM
bosh yuriskonsulti:



A.Farmonov